

## BUXORO VILOYATINING DORIVOR O‘SIMLIKLARINI BIOEKOLOGIYASI

*Muxayo Bafoyevna Tog`aeva - Katta o`qtuvchi*  
*Ismoilov Asrorbek O`tkirbek o`g`li - BuxDU Yoshlar akademiyasi*  
*Agronomiya va biotexnologiya fakultet LIDERI*  
*Istamova Jasmina Ulug`bek qizi - Iqtidorli talaba*

**Annotatsiya:** Maqolada Buxoro viloyatida uchraydigan dorivor o‘simliklarini botanik tao‘rifi, geografik tarqalishi, qo‘llaniladigan qism., yer ustki qismlari, kimyoviy tarkibi, ishlatilishi haqida batafsil bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** *Isiriq* (*Peganum harmala L.*), *Plantago major L.* zubturumdoshlar — *Plantaginaceae*

Insonlar qadim zamonlardan buyon turli xil giyohlarning davolovchi va quvvat beruvchi xususiyatlarini bilishgan va bu bilimlarini turli xil xastaliklarni davolashda ishlatishgan. Masalan qadimgi Misrda, Xindistonda, Xitoyda, O‘rta Osiyoda va boshqa ko‘pchilik davlatlarda tabiblar giyohlarning nimaga davo bo‘lishi haqida ko‘pgina risolalar yozib qoldirganlar. Qadimgi Tibet tibbiyoti bu bilan bog‘liq juda ko‘plab afsonalar bilan burkangan. Ular ichida hozirga qadar o‘z qimmatini yo‘qotmagan va amaliyotda ishlatiladigan turli xil giyohlardan tayyorlanadigan dorivor tarkiblarni topish mumkin. Ushbu bituruv malaka ishida Buxoro viloyatida uchraydigan xalq tabobatining ko‘plab dorivor giyohlardan iborat va turli xil kasalliklarga davo bo‘la oladigan shifobaxsh tarkiblari keltirilgan. Bu tarkiblarda ishlatiladigan giyohlarning deyarli barchasini yurtimiz tabiatidan, cho‘ladirlar va tog‘laridan topishingiz mumkin. Juda ham noyob, chet ellarda o‘sadigan va kam etishtiriladigan giyohlarni esa shifobaxsh giyoxlar sotiladigan fitodorixonalardan bemalol topish mumkin. Ulardan qaynatma, suvli yoki spirtli damlama, shifobaxsh choy, ajratma yoki ekstrakt ko‘rinishida tayyorlangan turli xil tarkiblarni sotib olishingiz yoki tayyorlatib olishingiz mumkin.

Buxoro viloyatida uchraydigan ayrim dorivor o‘simliklarning sistematik tahlili bilan tanishib o‘tamiz.

**O‘simlikning botanik tao‘rifi.** *Isiriq* (*Peganum harmala L.*) Tuyatovondoshlar — *Zygophyllaceae* oilasiga mansub, bo‘yi 20-60 sm bo‘ladigan o‘t o‘simlik. Poyasi bir nechta, sershox. Barglari oddiy, 4-5 bo‘lakka (bo‘laklari qalamsimon-nashtarsimon) ajralgan bo‘lib, poyada va shoxlarida ketma-ket joylashgan, poyasining pastki qismidagilari qisqa bandli, yuqoridagilari bandsiz. Oq yoki sargo‘ish gullari shoxlarining uchki qismida yakka-yakka o‘rnashgan. Mevasi — sharsimon, uch chanoqli ko‘sakcha.[1]

May-iyun oylarida gullaydi, mevasi avgustda yetiladi.

O'simlikning hamma qismlari zaharli!

**Geografik tarqalishi.** Rossiyaning Yevropa qismi janubida, Kavkaz cho'llarida va O'rta Osiyo, adirlarda, foydalanilmaydigan o'tloqlarda, togo'larning quyi qismida, qumloq, toshloq, tuproqli joylarda va begona o't sifatida ekinzorlarda o'sadi.

**Qo'llaniladigan qismi.** Yer ustki qismlari.

**Kimyoviy tarkibi.** O'simlikning hamma qismlarida 1,5-6%, ildizida 2,15-2,7%, urugo'ida 4,25-10% gacha zaharli alkaloidlar, garmin, garmalin bo'ladi; gullari va poyalarida peganin, garmol, garmonin va boshqa alkaloidlar bor. Bundan tashqari urugo'larida yogo'li moy, bo'yoq moddalari va boshqa moddalar bo'ladi.

**Ishlatilishi.** Garmin alkaloidining xloridrat tuzi ensefalit kasalligining asoratini, tutqanoq, qaltiroq va Parkinson kasalliklarini davolashda qo'llanilgan. Dezoksipeganin gidroxloridning ampuladagi eritmasi miasteniya, miopatiya va boshqa muskul kasalliklarini hamda nevrit kabi asab kasalliklarida ishlatiladi.

Gripp kasalligi avj olgan paytlarda isiriqni tutatib, bemor yotgan xonani dezinfeksiya qilish yaxshi natija beradi.

Isiriq qadim zamonlardan beri xalq tabobatida keng ishlatib kelinadi. Ibn Sino uning yer ustki qismini ezib, bo'go'inlar ogo'riganda va nervlar shamollaganda ogo'rigan yerlarga bogo'lashni Ibn Sino tavsiya etgan. O'sha vaqtlarda ham isiriqning ogo'riqni qoldirish xususiyati tabiblarga ma'lum bo'lgan.

O'simlikning yer ustki qismlaridan tayyorlangan qaynatma xalq orasida bod, bezgak, tutqanoq, uyqusizlik, shamollash va boshqa kasalliklarni davolashda, tinchlantiruvchi, uxlatuvchi va ogo'riq qoldiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Bu qaynatma teri kasalliklariga ham shifo bo'ladi. Shuningdek, yer ustki qismining qaynatmasi terlatuvchi va siydik haydovchi taosirga ega.

Nafas qisish va nafas olish qiyinlashgan vaqtlarda isiriq urugo'i qaynatmasini zigo'ir urugo'i qaynatmasi bilan, zaxm va bod kasalliklarida isiriq urugo'i qaynatmasini qalampir urugo'i qaynatmasi bilan birga qo'shib ichish tavsiya qilinadi.



1-rasm. *Peganum harmala* L. - Isiriq

**Katta zubtutum** — *Plantago major L.* zubtutumdoshtlar — *Plantaginaceae* oilasiga kiradi. Zubtutum ko'p yillik, kalta va yo'go'on ildizpoyali o't o'simlik. Ildizpoyasining yuqori tomonidan (yer ustida) uzun, qanotli bandli ildizoldi to'pbarglar, pastki tomonidan esa (yer ostida) juda ko'p mayda ildizlar o'sib chiqqan bo'ladi. Ildizoldi to'pbarglari keng ellipssimon yoki keng tuxumsimon, tekis qirrali va yirik bo'ladi. Gul o'qi bitta yoki bir nechta, tuksiz, bo'yi 10-45 sm. Gullari oddiy boshqqa to'plangan. Guli mayda, ko'rimsiz. Gulkosachasi to'rt bo'lakka qirqilgan, gultojisi och qo'ngo'ir rangli, to'rt bo'lakli, otaligi 4 ta, onalik tuguni ikki xonali, yuqoriga joylashgan.



**Mevasi** — tuxumsimon, ko'p urug'o'li ko'sakcha. May-iyun oylarida gullaydi.

**Geografik tarqalishi.** Sobiq Ittifoqning hamma tumanlarida yo'l yoqalarida, dalalarda, ekinzorlarda, o'tloqlarda, o'rmon chetlarida, ariq bo'ylarida va boshqa nam yerlarda o'sadi.

**Mahsulot tayyorlash.** O'simlik bargi yil bo'yi yigo'iladi. Yupqa qilib yoyib, soya yerda quritiladi yoki quritmay ishlatiladi.

**Kimyoviy tarkibi.** Mahsulot tarkibida aukubin (rinantin) glikozidi, achchiq, shilliq va oshlovchi moddalar, flavonoidlar (apigenin, gomoplantagenin, lyuteolin va skutellyarein glikozidlari va boshqalar), karotin hamda askorbin, limon kislotalar, faktor T va vitamin K bo'ladi.

**Dorivor preparatlari.** Damlama, nastoyka, yangi yigo'ilgan, quritilmagan bargning konservatsiya qilingan shirasi, plantoglyusid preparati, barg briketi.

Tibbiyotda katta zubtutum bilan bir qatorda o'rta hamda lansetsimon zubtutum o'simliklari ham ishlatiladi.

**O'rta zubtutum** — *Plantago media L.* O'simligi bargining har ikki tomoni tukli va bandi kalta bo'ladi.

**Lansetsimon zubtutum** — *Plantago lanceolata L.* O'simligining bargi lansetsimon bo'lib, uzunligi 15 sm, eni — 2—2,5 sm.[44]

**.Jag'-jag' (Achambiti) (Sapsella Bursa Pastoris)** karamdoshtlar (*Brassicaceae*) oilasiga kiradi. Bir yillik, bo'yi 20—30 (bao'zan 60) sm ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi bitta, bao'zan bir nechta, tik o'suvchi, shoxlangan yoki shoxlanmagan. Ildizoldi

barglari bandli, cho'ziq lansetsimon bo'lib, turlicha qirqilgan barg plastinkasiga ega. Poyadagi barglari mayda bo'ladi. Gullari shingilga to'plangan. Mevasi — qo'zoqcha. Aprel oyidan boshlab kuzgacha gullaydi, mevasi iyundan boshlab yetiladi.

**Geografik tarqalishi.** Sobiq Ittifoqning uzoq Shimol va cho'l tumanlaridan tashqari barcha aholi yashaydigan yerlarda, yo'l yoqalarida, o'tloqlarda va begona o't sifatida ekinlar orasida o'sadi. Mahsulot Ukraina respublikasida hamda Volga bo'yi tumanlarida yigo'iladi.

**Kimyoviy tarkibi.** Mahsulot tarkibida gissopin glikozidi, bursa kislota, 0,12% askorbin kislota, vitamin K, olma, limon, vino, fumar kislotalar, xolin, atsetilxolin, tiramin, inozit, flavonoidlar (diosmin va boshqalar), saponinlar, oshlovchi hamda boshqa birikmalar bo'ladi.



2-rasm oddiy jag'-jag'

**Dorivor preparatlari.** Damlama, suyuq ekstrakt.[43]

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish Ayupov Ravshan Xamdamovich "Toshkent" 144 bet
1. Nortosh O'ljaboeva. Xalq tabobati xazinasidan javohirlar. Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2009 yil. 1135 bet.
2. Do'stlar, qadrdonlar va farzandlar uchun Ayupov Ravshan Xamdamovich 262 2.
3. Muhiddin Umarov va boshqalar. Boshiga tushgan tabib. Toshkent, «Istiqlol», 2007 yil.
4. Xolida Mirfayoz qizi, Solijon Azizov. Qariyalarga malham bo'laylik. Toshkent, Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002 yil.
5. Dilnoza Zunnunova. LIMON – barcha kasalliklarga davo. Toshkent, «Davr Press», 2008 yil.
6. Safar Muhammad. Tabiat ne'matlarining shifobaxsh xususiyatlari. Toshkent, «Istiqlol», 2007 yil.

7. Ikromali hoji Usmonov. Asal xosiyatlari. Toshkent, «Istiqlol», 2008 yil.
8. Xayrulla Kosimov. Piyoz va sarimsoq. Toshkent, «San’at jurnali», 2009 yil. 8
9. Abu Ali Ibn Sino. Sirli tabobat. Toshkent, «Nasaf nashriyoti», 2009 yil.
10. Zunnunova D. Na’matak – 100 dardga davolash. Toshkent, «Davr Press», 2009 yil.
101. Zunnunova D. Asal – salomatlik manbai. Toshkent, «Davr Press», 2009 yil.
12. Nasibulin F.X. MO‘MIYO – ming dardga davolash. Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1994 yil.
13. Ergashev SHukur. YUZ dardga yuz davolash – shifobaxsh giyoxlar, tabiiy ne’matlar va turli beozor omillar bilan davolash. Toshkent, «Istiqlol», 1999 yil.
14. Xoji Mengnazar Rustam o‘g‘li. Dard borki, darmon bor. Toshkent, «Fan», 2005 va 2006 yillar. 14
15. Usmonov I., Qosimov X. Asal va sut. Toshkent, «Nasaf nashriyoti», 2009 yil.
16. Ibrohim Qo‘ziev. SHifobaxsh ichimliklar. Toshkent, «Fan», 2007 yil. 17. Ibrohim Qo‘ziev. Tanangizda dard bo‘lsa. Toshkent, «Fan», 2006 yil
18. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-5 kitoblar. Toshkent, Fan, 1979- 1983 yillarda nashr qilingan.
19. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy o‘g‘itlar. Toshkent, Mehnat, 1991 yil
20. Aksyonov A. Universalnaya kniga znaxarya XXI veka. M.: OOO Izd-vo AST. Donetsk, Stalker, 2004
21. Ahmad Muhammad. Sedana barcha dardlarga davolash. Toshkent. «Voris», 2007 yil.
22. Jo‘raev E. va boshqalar. SHifobaxsh giyoh va sharbatlar. Toshkent, «Mehnat», 1992 yil.
23. Ikromali hoji Usmonjon hoji o‘g‘li. Mo‘miyo shifobaxsh mo‘jiza. Toshkent, Istiqlol, 2006 yil.
24. Karimov V.A., SHomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar. Toshkent, Ibn Sino nashriyoti, 1993 yil. Do‘stlar, qadrdonlar va farzandlar uchun Ayupov Ravshan Xamdamovich 263
25. Malaxov G.P. Polnoe ochiщenie organizma. M.: Rostov na Donu, Izd-vo «Mart», 2005 god.
26. Matchanov J. Tabiiy shifo manbalari va sog‘lom xayot. Toshkent, 2006 yil.
27. Umarova N. SHifobaxsh ALOE. -Toshkent: «Kamalak», 2007 yil.
28. Movlonqulova X. va boshqalar. Isiriq va yantoq. Toshkent, Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 1995 yil.
29. Rohila Boqieva. Ming dard davosi. Turkistonning shifobaxsh giyohlari. Toshkent, .Navro‘z (1995) va YAngi asr avlodi (2002)
30. Abdulaziz Saidnuriddin o‘g‘li. O‘zbek xalq tabobatidan o‘g‘itlar. Toshkent, «Ekstremum Press», 2009 yil.
31. Abdulaziz Saidnuriddin o‘g‘li. O‘zbek xalq bolalar tabobatidan. Toshkent, «Vektor-Press», 2009 yil.

- 32..Umarova N. Oltin va uning xosiyatlari. -Toshkent: «Kamalak», 2009 yil. 33.L.A. Bulanov. Zabolevaniya pozvonochnika i sustavov. Metody lecheniya. M.: «EKSMO», 2009 god
- 34.Tibbiyot qomusiy lug‘at. Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1994 yil.
- 35.Oydin Solih. Xaqiqiy tibbiyot (Yo‘qotilgan shifo izidan). Istambul, “Sembol Basim” bosmaxonasi, 2009 yil, 484 bet.
- 36.Karimov V.A., A. SHomaxmudov. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar. – Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1993 yil. – 320 bet.
- 37.X.X. Xolmatov, A.I. Qosimov. Ruscha-o‘zbekcha dorivor o‘simliklar lug‘ati. – Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1992 yil. – 200 bet.
- 38..Ahmad Muhammad Tursun. Tabobat kitobi. Toshkent: «Muharrir» nashriyoti, 2010 yil.
- 39Yunusjon Tolipov. Moychechak (Romashka). -T.: «Yurist-media» markazi, 2011. - 40 bet.
- 40..Hakim Davoiy al-G‘iloniy. Favoyidu-l-Inson (Insonlarga foydalar). – T: MCHJ «Majnuntol» firmasi, 1991 yil, - 64 bet.
- 41.Anvar Madrahimov. Ibn Sino shifobaxsh o‘simliklar haqida (damlama, qaynatma va malhamlar). –T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. 2012 yil. – 128 bet.
- 42.Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. –Toshkent: «Fan» nashriyoti, 1982 yil.
- 43.Nazarov I.K., Allayorov I. Buxoro geografiyasi. Buxoro, 1994, 67 b.
44. Dorivor o'simliklar vetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Ahmedov O'. Ergashev A Toshkent 2018